

# Yashil

# IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 283 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.*

## **Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya**, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi**, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
**Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, i.f.d., TDIUprofessor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, i.f.n., TDIU professori  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, i.f.d., TSUE professori  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farxod**, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Musayeva Shoira Azimovna**, SamDu IS instituti professori  
**Cham Tat Huei**, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi  
**Djudi Smetana**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
**Krissi Lyuis**, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH  
**Ali Kopak (Али Кўнак)**, i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya  
**Glazova Marina Viktorovna**, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti  
**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## Editorial board:

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE

**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
<b>Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna</b>	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash .....	20
<b>Shakarov Zafar Gafforovich</b>	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему .....	24
<b>С.С. Исмаилов</b>	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili .....	32
<b>Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich</b>	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
<b>Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li</b>	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari .....	41
<b>Sh.B. Donayev</b>	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir .....	45
<b>Xursandov Komiljon Maxmatkulovich</b>	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....	49
<b>Idrisov Alisher Otajonovich</b>	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlari.....	53
<b>Sultanov Maxmud Axmedovich</b>	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
<b>Amirdjanova Sitara Sunnat kizi</b>	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики .....	61
<b>Вохидова Мехри Хасановна</b>	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран .....	69
<b>Буранова Лола Вахобовна</b>	
Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
<b>Babamatov Tolib Hakimovich</b>	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari .....	83
<b>S.A.Karabayev</b>	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari .....	90
<b>Yusupov Aziz Shuxratovich</b>	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi .....	95
<b>Gulbayeva Feruza Islamovna</b>	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
<b>Sherov Alisher Bakberganovich</b>	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili .....	107
<b>Sayidova Maftuna Hamroqul qizi</b>	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish .....	111
<b>Umarova Malika Baxtiyarovna</b>	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций .....	116
<b>Умида Юлдашева</b>	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
<b>Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович</b>	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
<b>Ismoilov Sherzod Dilshodovich</b>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
<b>Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li</b>	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari .....	138
<b>Sharipov Narzullo G'ulomovich</b>	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
<b>Shadieva Madina Djaloliddin qizi</b>	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
<b>Jumanazarova Z.K.</b>	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri .....	154
<b>Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich</b>	
Oliygochlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari .....	158
<b>Adizov Sanjar Rashidovich</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish .....	165
<b>Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi</b>	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
<b>Касимова Зилола Гуламиддиновна</b>	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantrish .....	182
<b>Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li</b>	
Актуальные проблемы и пути решения приватизации государственного имущества в узбекистане .....	186
<b>Шахзод Сайдуллаев</b>	
Ttijorat bank daromadlaridagi risklarni baholash va boshqarishni takomillashtirish .....	192
<b>Ahmedov Komron Muhammadaliyevich</b>	
Sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	196
<b>Quyjanov Xurshid Abdullayevich</b>	
Tashkilotning moliyaviy natijalarini hisobga olishda auditni takomillashtirish masalalari .....	200
<b>Bakayev Xurshid Maxmudovich</b>	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi o'rni va ahamiyati .....	206
<b>Normurzayev Umid Xolmurzayevich</b>	
Анализ международного опыта в сфере тепличного овощеводства .....	214
<b>Нурутдинова Зухра Алишеровна</b>	
Hududda turizm xizmatlarini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribalarining mohiyati .....	220
<b>Madaminova Sanobar Askarovna</b>	
Hududning iqtisodiy o'sishini "yashil" iqtisodiyot asosida shakllantirishning nazariy asoslari .....	226
<b>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li</b>	
Davlat tibbiy sug'urta jamg'armasi faoliyati tahlili.....	230
<b>Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi</b>	
Qurilish materiallarini ishlab chiqarish korxonalarining boshqarish tizimini takomillashtirish.....	234
<b>Uzakova Umida Ruziyevna</b>	
O'zbekistonda turistik majmualarni boshqarishning zamonaviy konsepsiyalari va yondashuvlarining metodologik jihatlari.....	241
<b>Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li</b>	
Aktiv va reaktiv quvvatlari tushunchasi va ularni soliqqa tortishdagi mavjud muammolar .....	247
<b>Boykabilov Bahodir Mustafayevich</b>	



Kichik sanoat zonalari korxonalar va mahsulotlar raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuv .....	251
<b>Ozoda Batirovna Sakiyeva</b>	
Investitsion jozibadorlikni baholashning uslubiy jihatlari .....	255
<b>N.N.Zikrillayev</b>	
Hududlarda turizm tarmoqlari infratuzilmasi va uni rivojlantirishni boshqarishning metodologik jihatlari .....	263
<b>Saidova Dilfuza Abdufattohovna</b>	
The connection of legal protection of geographical indications and state's economic growth .....	268
<b>Almosova Shahnoza Sobirovna</b>	
Kichik biznesning integratsiyalashuv mexanizmlarini shakllantirish .....	273
<b>Israilov Rustam Ibragimovich</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarida biznes jarayonlarni samarali boshqarishning nazariy asoslari va o'ziga xos xususiyatlari .....	277
<b>D.D. Suvanova</b>	



# HUDUDLARDA TURIZM TARMOQLARI INFRATUZILMASI VA UNI RIVOJLANTIRISHNI BOSHQARISHNING METODOLOGIK JIHATLARI

Saidova Dilfuza Abdufattohovna

Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada turizm tarmoqlarini rivojlantirishning innovatsion faoliyatini boshqarishda tarmoqlar infratuzilmasining optimal holda tashkil etilishi, turizm tarmoqlariga ilmiy ishlanmalarni tatbiq qilishning eng samarali yo'llari, minimal sarf-xarajatlar bilan raqobatbardosh ilmiy asoslangan turistik mahsulotlarni yaratuvchi turistik korxonalar tarmog'ini barpo etish masalalari hamda innovatsion turizm tarmoqlari infratuzilmasi subyektlari tahlili amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar:** Turizm tarmoqlari, turizm tarmoqlari infratuzilmalari, turizm tarmoqlarini boshqarish, fan-ta'lim integratsiyasi, infratuzilma subyektlari, raqobatbardosh turistik xizmatlar.

**Abstract:** In the article, the organization of networks infrastructure in the management of innovation activities of Tourism Development, the most effective ways of applying scientific developments to tourism networks, the establishment of a network of tourist enterprises creating competitive scientifically based tourist products with minimal spending, and the analysis of the infrastructure entities of innovation tourism networks were carried out.

**Key words:** Tourism networks, tourism network infrastructures, Tourism Network Management, Science and education integration, infrastructure entities, competitive tourist services.

**Аннотация:** В статье рассматривается организация сетевой инфраструктуры при управлении инновационной деятельностью по развитию туризма, наиболее эффективные способы применения научных разработок в туристических сетях, создание сети туристических предприятий, создающих конкурентоспособные научно обоснованные туристические продукты с минимальными затратами, а также проводится анализ инфраструктурных субъектов инновационных туристических сетей были проведены.

**Ключевые слова:** Туристические сети, инфраструктура туристических сетей, управление туристическими сетями, интеграция науки и образования, объекты инфраструктуры, конкурентоспособные туристические услуги.

## KIRISH

Turizm tarmoqlarini rivojlantirishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni shakllantirish birinchi navbatda fan-ta'lim sohasida institutsional o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Zero, ilmiy va ta'lim muassasalarining mavjud tashkiliy shakllari ularga innovatsion faoliyatni tashkil qilishdagi o'z salohiyatini to'laligicha ro'yobga chiqarishga va bozor sharoitlariga faol moslashishga imkon bermaydi.

Respublikamiz turizm sohasi rivojlanishining ustuvor yo'nalishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmoniga muvofiq, 2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi qulay iqtisodiy sharoitlar va omillarni yaratish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi o'rni va ulushini oshirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan. Konsepsiyada talabni inobatga olgan holda, yangi joylashtirish vositalarini qurish va mavjudlarni rekonstruksiya qilish bilan bir qatorda yondosh infratuzilmani (umumiy ovqatlanish obyektlari, transport-logistika tuzilmalari, ko'ngilochar maskanlar industriyasi, madaniy va sport muassasalari, turistik namoyish obyektlari va boshqalarni) rivojlantirishga qaratilgan turizm industriyasini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish"[1] vazifasi belgilangan.

Biz, ushbu konsepsiyani tahlil qilish asosida uning respublikamiz va hududlar iqtisodiyotida turistik klasterlarni yaratishning quyidagi yo'nalishlarini aniqladik:

- mamlakatimiz iqtisodiyotining tabiiy-iqlim joylashuvini hisobga olgan holda raqobatbardoshlikni ro'yobga chiqaradigan klasterlarining yaxlit tarmog'ini yaratishdan iborat modelini yaratish;
- xorijiy mintaqalarda bir qator innovatsion yuqori texnologiyali iqtisodiy klasterlarni shakllantirish;
- yuqori texnologiyali turistik klasterlarni loyihalashtirish, shakllantirish va rivojlantirish (jumladan, ma'muriy, moliyaviy, moddiy-texnik va infratuzilmaviy);
- iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarda yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilgan hududiy ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish, ushbu klasterlarni turizm sohasi bilan inte-



gratsiyalash hamda ularni aholisi yuqori ulushga ega hududlarda konsentratsiyalash va malakali mutaxassislar bilan ta'minlash;

- noyob tabiiy rekreatsion resurslar va landshaftlarga ega, tarixiy, madaniy va boshqa merosga boy hududlar doirasida turistik-rekreatsion klasterlarni shakllantirish.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida respublikamiz hududlari, alohida sektorlari va tarmoqlarini samarali rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishda ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning tayanch mexanizmlari hozirgi vaqtda determinantlik rolini yo'qotmoqda. Bunda xo'jalik subyektlarining innovatsion faolligini oshirish maqsadida intensiv imkoniyatlarni shakllantirish yo'li bilan milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga faol ta'sir ko'rsatuvchi innovatsion mexanizmlarni yaratish dolzarb bo'lib bormoqda. Shunga ko'ra, hozirgi vaqtda klasterlarni talab doirasida shakllantirish va rivojlantirishning dasturlarini moliyalashtirishning mutanosib usullarini ta'minlashni nazarda tutuvchi hududlar darajasidagi mexanizmlar samarali shakllanib bormoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalqaro tajribada turizm tarmoqlari infratuzilmasini samarali boshqarishda hududiy innovatsion rivojlanish jarayonlarni tashkil etish bo'yicha turli jihatlarini S. Valdayseva, V. Kabakova, A. Kazanseva, G. Krayuxina, A. Porshneva, K. Puzinya, A. Rumyanseva va boshqa olimlar ishlaridan topish mumkin. Taniqli Y. Shumpeter, G. Mensh, Dj. Forrester ishlarida turizm tarmoqlarini iqtisodiy o'sishni innovatsion tarkibi konsepsiyasini ta'minlovchi makroiqtisodiy modellar mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Turizm tarmoqlari salohiyatini ilmiy-texnik salohiyat sifatida shakllantirish va baholashga bag'ishlangan juda ko'p ilmiy ishlar mavjud, bularga V. Gromeki, G. Dobrov, Yu. Kopigin, A. Medvedev, V. Solovev ishlarini kiritish mumkin.

Turizm tadbirkorligi faoliyatining raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida namoyon etuvchi yangiliklarni marketing sohasidagi olimlar I. Ansoff, Ye. Dixtl, X. Xermgen, F. Kotler, D. Liti va boshqalar ko'rib chiqqan.

Iqtisodiy tizimlarning hozirgi bosqichida faoliyat ko'rsatish xususiyatlari nuqtayi nazardan ularning turizm tarmoqlarining innovatsion faoliyati bo'yicha alohida masalalari A. Anchishkin, A. Babashkin, G. Barishev, V. Bezrukov, Yu. Voronin, D. Kazakevich, I. Korolev, G. Petrov, M. Pereverzeva, A. Seleznev, V. Tyurin, O. Saplin va boshqalarning ishlarida ko'rib chiqilgan.

Turizm tarmoqlarini samarali boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish borasida hozirgi muammolarni o'rganish asosini tashkil etuvchi klaster mexanizmlari bilan bog'liq alohida jihatlar Yu. Britxem, L. Gapenski, K. Dryusa, P. Druker, Dj. Kuinna, K. Krossa, A. Tompson, R. Falera, G. Shteyner, Van Xorna va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

O'zbekistonda turizm tarmoqlarini rivojlantirishning innovatsion faoliyatini boshqarish tizimini o'rganish bo'yicha A.Sh. Bekmurodov, B. Berkinov, Sh.N. Zaynutdinov, N.Q. Yo'ldoshev, M.A. Mahkamova, I.Q. Mirzaev, A.F. Rasulov va A.M. Qodirov boshqa olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar.

Amalga oshirilgan ushbu tadqiqotlar muhim ilmiy va uslubiy manba bo'lsa-da, bugungi kunda respublikamiz turizm tarmoqlarini innovatsion rivojlantirish va sohani boshqarishga innovatsion menejment usullarini tatbiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani yozish jarayonida ilmiy tadqiqotni amalga oshirishning tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy tajribaning ko'rsatishicha, milliy fan-ta'lim majmualarining institutsional tuzilishi ko'p jihatdan davlat tuzumining xususiyatlariga bog'liqdir. Masalan, AQShda turizm tarmoqlarini rivojlanishi uchun federal hukumat mas'ul bo'lib, bu hukumat mazkur sohada yagona milliy siyosatni amalga oshiradi, unga salmoqli byudjet mablag'larini yo'naltiradi va ularning taqsimotini nazorat ostiga oladi. Germaniyada bu jarayon yerlar (hududlar, viloyatlar) miqyosida amalga oshiriladi. Har bir ma'muriy bo'linma o'z siyosatini, shu jumladan, turizm tarmoqlari tuzilmalarini moliyaviy va boshqa yo'nalishda qo'llab-quvvatlash bo'yicha muayyan chora-tadbirlar majmuasini amalga oshiradi.

Mazkur majmuaning samaradorligini va uni boshqaruv amaliyotini oshirish bilan bog'liq umummilliy vazifalarni hal qilish uchun uning taraqqiyoti haqida, shu jumladan, fan va ta'lim sohalarining integratsiya jarayonlari haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish lozim. Turizm tarmoqlarini rivojlantirishda integratsiyaning xorijiy mamlakatlarda qabul qilingan zamonaviy shakl va mexanizmlarini tatbiq qilish imkoniyatlari ko'p jihatdan ijtimoiy-



iqtisodiy, institutsional, ma'muriy va boshqa sohalardagi o'zgarishlarning umumiy yo'nalishi bilan belgilanadi. Ta'kidlab o'tish joizki, zamonaviy integratsion jarayonning ayrim elementlari amaldagi huquqiy maydonda ham rivojlanishi mumkin.

Bunda eng muhim ustuvor jihat – davlat ilmiy tashkilotlari va oliy ta'lim muassasalarini ular asosida zamonaviy hamda sifatli turistik xizmatlarni ishlab chiqarish va ularni xo'jalik aylanmasiga jalb qilish jarayonining samaradorligini ta'minlay oluvchi korporativ-integratsiyalangan tuzilmalar tashkil qilish yo'li bilan restrukturalashtirish zarurdir. Bu masalani yetakchi ta'lim va fan bo'linmalari asosida turistik korxonalar faoliyatida fan-ta'lim innovatsion majmualarini tashkil qilish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin bo'lib, bunday majmualar o'zida turizm tarmoqlari boshqaruv jarayonlarini rivojlantirish va turistik xizmatlar ishlab chiqarish faoliyatida foydalanish uchun uzatish vazifalarini mujassam etgan bo'lishi lozim.

Jahon tajribasining ko'rsatishicha, turizm tarmoqlarini rivojlantirishning innovatsion faoliyatini boshqarishda tarmoqlar infratuzilmasining tashkil etilishi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

O'z ishtirokida tashkil qilinadigan qo'shma tadqiqot laboratoriyalarini, kichik konsalting va startap korxonalarini integratsiyalay oluvchi va ularning faoliyatini muvofiqlashtira oluvchi rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lgan turizm tarmoqlari faoliyatining samarali tashkil etilishi milliy innovatsion xizmatlar tizimining kerakli asosiy elementlarini ta'minlash, innovatsiya sohasiga sarmoyalar oqimining kirib kelishini rag'batlantirish, mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonini turistik xizmat ko'rsatish korxonalarining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yo'naltirish imkonini beradi.

Bunday majmualar ilmiy faoliyat, turistik xizmatlar innovatsiya jarayonini ta'minlashdan tashqari:

– texnologiyalar transferi markazi;

– davlat byudjeti hisobiga amalga oshirilgan va xarid qilingan ilmiy-texnik faoliyat natijalarining depozitariysi;

– o'z tasarrufiga o'tkazilgan davlat mol-mulkiga, shu jumladan, davlat byudjeti hisobiga amalga oshirilgan ilmiy-texnik faoliyat natijalariga nisbatan mulkdorlik vakolatlarini amalga oshirish; intellektual mulkni sanoatda o'zlashtirishdan olingan qaytim mablag'larni vujudga keltiruvchi;

– innovatsion loyihalar hamda innovatsion faoliyat sohasiga ixtisoslashgan tadbirkorlarni boshqarish uchun kadrlar tayyorlash va menejerlar malakasini oshirish funksiyalarini ham bajara olishi lozim.

Turizm tarmoqlariga ilmiy ishlanmalarni tatbiq qilishning eng samarali yo'li qisqa muddatda minimal sarf-xarajatlar bilan raqobatbardosh ilmiy turistik mahsulotlarni yaratuvchi turistik korxonalar tarmog'ini barpo etishdir. Bu jihatdan O'zbekistonda innovatsion turizm tadbirkorligini keng rivojlantirish bozor o'zgarishlari va mamlakat iqtisodiyotini jonlantirish jarayoniga ulkan ilmiy-texnik salohiyatni jalb qilish imkonini beradi.


Turizm tarmoqlarini boshqarishda intellektual mulkni muhofaza qilish va himoyalashning me'yoriy-huquqiy bazasini doimiy takomillashtirib bormay turib, uni xo'jalik aylanmasiga kiritmay turib, mahsulotlarni sertifikatlash me'yorlari, standartlari va tizimlarini bu sohadagi jahon andozalariga muvofiqlashtirmay turib turizm tarmoqlarini innovatsion rivojlantirib bo'lmaydi. Bu masalalarning katta qismi hududiy turizm tarmoqlari boshqaruv faoliyatida innovatsion yo'nalishlarni jonlantirishning idoralararo va tarmoqlararo dasturlari doirasida hal qilinadi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar tajribasidan olinishi kerak bo'lgan eng muhim jihat shuki, iqtisodiyotning yuqori innovatsion faolligi davlatning ilmiy-texnik bozordagi yetakchi roli bilan, milliy ustuvor yo'nalishlarning belgilanishi bilan, davlatning turizm tarmoqlari innovatsion taraqqiyot jarayoniga iqtisodiy rag'batlantiruvchi tizim orqali faol ta'sir ko'rsatishi bilan ta'minlanadi.

Turizm tarmoqlarini boshqarishda innovatsion jarayonni rag'batlantirishning kompleks mexanizmini barpo etish, jumladan, ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchilarga tegishli imtiyozlar belgilash lozim. Davlat resurslarning cheklanganligini va ustuvor yo'nalishlarni hisobga olgan holda ilmiy-texnik taraqqiyotning fundamental tadqiqotlardan boshlab ishlanmalarni turistik xizmatlar yaratishga joriy etishgacha bo'lgan butun zanjirini rag'batlantirishi lozim.

Milliy iqtisodiyotda turizm tarmoqlarini rivojlantirish islohotlarini amalga oshirish sharoitlarida innovatsion ko'rsatkichlar eng muhim raqobatli ustunlik sifatiga ega bo'ladi, tarkibiy nisbatlarni innovatsion yo'nalishda takomillashtirish esa davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining maqsadli yo'nalishlaridan biriga aylanadi. Bularning barchasi turizm tarmoqlarini boshqarishning innovatsion faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va uni rivojlantirish uchun kerakli shart-sharoitlarni yaratish, maqsadga yo'naltirilgan va muvozanatlashgan innovatsiya siyosatini ishlab chiqish zaruratini belgilab beradi. Bunday innovatsion siyosatni amalga oshirish imkoniyati, avvalo, mamlakatda yuzaga kelgan shart-sharoitlar va omillarga muvofiq iqtisodiy strategiyani va uning innovatsion tarkibiy qismini ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

Ilmiy-texnik soha bilan turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlab chiqish va tayyorlash va uni bozorga olib kirish o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in innovatsion turizm tarmoqlari infratuzilmasidir. Innovatsion turizm tarmoqlari infratuzilmasi deganda turizm xizmatlarini ishlab chiqarishda innovatsion faoliyatga moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-metodik, axborot, maslahat va boshqa turdagi xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi subyektlar, resurslar va vositalar majmuasini tushunish lozim (1-rasm).



1-rasm. Innovatsion turizm tarmoqlari infratuzilmasi subyektlari

Bizning fikrimizcha, innovatsiya turizm tarmoqlari infratuzilmasi bu – turizm tarmoqlari subyektlariga innovatsion xizmat ko'rsatuvchi yoki ularning ishini ta'minlovchi, shu jumladan, turizm tarmoqlari subyektlariga boshqaruv, moddiy-texnik, moliyaviy, marketing, axborot, maslahat, tashkiliy, kadrlarga oid va boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi yordamchi tashkilotlar yig'indisi sifatida ta'rif berish mumkin.

## XULOSA

Hududiy turizm tarmoqlarini innovatsion rivojlantirishning ustuvor strategik yo'nalishi milliy innovatsion mexanizmni barpo etishdan iborat bo'lib, mazkur mexanizm tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy chora-tadbirlar va muayyan innovatsion loyihalarni amalga oshirish tizimidir. U yangi bilimlarni ishlab chiqarish, tadqiqotlar natijalarini turizm sohasining barcha strategik tarmoqlariga tezkor tatbiq etish va yangi turistik mahsulotlarni iste'molchilarga sotish jarayonini ta'minlashi lozim.

Turizm sohasi rivojlanishining innovatsion jihatiga alohida to'xtaladigan bo'lsak, buning uchun beshta eng muhim omilni ajratib ko'rsatish zarur:

- infratuzilmaning mavjudligi – ITTKIning amalga oshiruvchi ta'lim va ilmiy muassasalar;
- tadbirkorlikda innovatsion jozibadorlikni ta'minlash;
- turizm bozorida turistik mahsulotlarning xarakteri va tarkibida innovatsion komponentning ulushi yuqoriligi;
- geografik (geosiyosiy, ijtimoiy-geografik, infratuzilmaviy-geografik, iqtisodiy-geografik, transport-geografik) omil;
- mamlakat hududlarida innovatsiyaga yo'naltirilgan ishlab chiqarish darajasi va uning turistik faoliyatga ta'siri.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/4143188>
2. Гасникова А.А., Волова Ю.А. Межрегиональная экономическая дифференциация на севере и пути ее сглаживания [Интеррегионал Экономис Дифференциатион ин тхе Нортх анд Уайс то Смоотх ит]. Националне интересей: приоритетей и безопасност [Национал Интересст: Приоритиес анд Сесуритй], 2012, Но. 47, пп. 9–13. (Ин Русс.).
3. Костин К.Б. Форсайт развития технологий дополненной реальности в международном туризме [Форесигхт оф тхе Девелопмент оф Аугментед Реалитй Течнологиес ин Интернационал Тоурисм]. Известийа Санкт-Петербургского государственного экономического университета [Просеедингс оф тхе Саинт Петербург Стате Университй оф Экономисс], 2016, Но. 6 (102), пп. 57–63. (Ин Русс.). Хомидов, Қ. Қ. (2024). Совершенствование институциональной базы системы государственного регулирования туристских комплексов. *World of Scientific news in science*, 2(2), 262-269.
4. Homidov K. (2023). Conceptual approaches to the formation of a model for the sustainable development of tourist complexes. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 2(7), 33-38.
5. Homidov K. (2023). Organizational and economic foundations of the organization of tourist complexes in the development of tourism in the regions. *Journal of Agriculture & Horticulture*, 3(7), 44-50.
6. Homidov Kakhkhorali Kurbonali ugli. (2023). Objective need for the formation and sustainable development of tourist complexes in the regions: <https://doi.org/10.5281/zenodo.8151902>. *IQRO*, 4(2), 42–45.
7. Хомидов К. (2023). O'zbekistonda turistik majmualar faoliyatini boshqaruv samaradorligini oshirish yo'llari. *Economics and Innovative Technologies*, 11(3), 154-160.
8. Хомидов Х. (2023). Худудларда туристик мажмуалар фаолиятини шакллантириш ва тизимли бошқариш асосида худудлар туристик салоҳиятидан самарали фойдаланиш масалалари. " Milliy iqtisodiyotni isloh qilish va barqaror rivojlantirish istiqbollari" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami., 412-415.
9. Хомидов Қ.Қ. (2023). Организационно-экономический механизм развития туристических комплексов. In *Новые технологии в учебном процессе и производстве* (pp. 370-372).
10. Хомидов Қ. Қ. (2023). Инновационные преимущества использования информационных технологий в туристической деятельности. In *современные вопросы естествознания и экономики* (pp. 421-424).

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 8**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

